



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 3 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### **07.00.00- TARIX FANLARI:**

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### **08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:**

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### **09.00.00- FALSAFA FANLARI:**

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### **10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:**

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIysi SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR) .....	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI .....	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI) .....	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI .....	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID .....	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожсамурович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА .....	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI .....	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR .....	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI .....	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	75-82

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	83-96
<i>Abdullahov Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKIOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI .....	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i>	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI .....	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI .....	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldasbayev Azizulloh</i>	
BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH .....	153-158
<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНІ .....	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i>	
OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR .....	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ .....	177-183
<i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</i>	
YERLARNI BAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	184-193
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i>	
IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'iy INTELLEKTNING INSON SALOHIYATIGA TA'SIRI .....	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i>	
QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i>	
UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH .....	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i>	
ВОПРОС НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ .....	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i>	
HAJVİYLIKNING PSIXOLOGİK İJTİMOİY-MADANIY VA ESTETİK XUSUSİYATI .....	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i>	
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI .....	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i>	
HAKIM TERMİZİYNING FALSAFIY TA'LIMOTI .....	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i>	
SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA	
TEATR SAN'ATINING O'RNI .....	237-241
<i>Toshboboeva Munavar</i>	
IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI .....	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i>	
YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING	
UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI .....	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i>	
FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI .....	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i>	
HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING	
HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI .....	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i>	
IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI .....	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i>	
MA'NAVIY MARGINALLASHUVDAN HIMOYALANISHDA XORIJ TAJRIBASI .....	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i>	
JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIYASINING ZAMONAVIY TAHLILI .....	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i>	
YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID	
TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI .....	281-286
<i>Ярлакабов Джамишид Мамасултонович</i>	
СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ	
ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	287-291
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID	
LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI .....	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIY HIS TUYG'ULARNI	
LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI .....	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK"	
KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI .....	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i>	
ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN	
YANGI BADIY SHAKLLAR .....	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i>	
NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI .....	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i>	
IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI .....	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i>	
HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI .....	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i>	
STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES .....	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i>	
THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC .....	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i>	
ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA) .....	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI .....	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i>	
CAUSES OF STEREOTYPE OCCURRENCE .....	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i>	
NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE" .....	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i>	
DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT .....	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i>	
EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHЛИLI .....	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i>	
SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI .....	369-372

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Нурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i>	
КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА .....	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i>	
К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ .....	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i>	
QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR .....	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i>	
QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISHNING AYRIM MASALALARI .....	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i>	
KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI .....	400-407

*Ибрагимова Сабина Эркиновна*  
К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ  
СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО-  
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ..... 408-413

*Avezov Dilshod Sadulayevich*  
MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLİSH MASALALARI  
VA UNING XUSUSIYATLARI ..... 414-418

*Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li*  
VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLİSH  
YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI ..... 419-423

*Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li*  
INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK  
BAZASINING ROLI ..... 424-432

*Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich*  
BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI  
TIZIMINI KUCHAYTIRISH ..... 433-442

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna*  
ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI  
QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 443-449

*Raxmatov Otobek Urinbosarovich*  
“JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI” FANINING BO'LAJAK  
JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI  
TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI ..... 450-455

*Xamroyev Samijon Salimovich*  
SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI  
SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI ..... 456-461

*Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna*  
TALABALARDA INSHONING MAZMUNIY- MANTIQIY BAYON QILINISHIGA  
DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH ..... 462-467

*Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li*  
ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI  
VA BIOMEXANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI ..... 468-472

*Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna*  
TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHIDLARDAN  
HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI ..... 473-480

*Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,*  
TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA  
ASOSLANGAN YONDASHUV ..... 481-486

*O'tashev Xasan Nematullayevich*  
OLIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI  
SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI ..... 487-492

*Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li*  
BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI  
VA KASBIY FAZILATLARI ..... 493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i>	
O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI .....	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i>	
PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURSLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI .....	508-518
<i>Qurbanova Bonu Quvondiq qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KITOFGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i>	
O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI .....	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i>	
BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR .....	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i>	
MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH .....	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i>	
USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE .....	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i>	
O'QUVCHILARNING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI .....	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i>	
JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH .....	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI .....	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i>	
TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i>	
1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI .....	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i>	
TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH .....	588-593

**Received:** 16 February 2025

**Accepted:** 5 March 2025

**Published:** 20 March 2025

*Article / Original Paper*

## **THE ISSUE OF LIGHT AND MOVEMENT IN THE TEACHINGS OF FAZL IBN AHMAD**

**Saipova Mavzhuda Karimzhanovna,**  
Associate Professor of Fergana State University  
Doctor of Philosophy (PhD)

**Abstract.** This article provides information on the philosophical analysis of the scientific work and life of Fazl ibn Ahmad. The work Iddatul uqul wa umdatul abdul (The Promise of Reason and the Basis of Things Desirable to Reason) contains thoughts on the philosophy of light and movement. In the construction of a new Uzbekistan, the teachings of Rumi, especially the ideas of Fazl ibn Ahmad, in today's difficult times, raising young people as spiritually mature people and spiritually elevating them remains an important task. Today, the priority of effective use of Fazl ibn Ahmad's treatise Iddatul uqul wa umdatul maqul (The promise of minds and the foundation of things that are good for minds) in social development, society's well-being and satisfaction of human needs is highlighted.

**Keywords:** Islam, social science development, human dialectical, synergetic, deterministic, spiritual national and universal interests, progressive development, moral values, aesthetic, political, legal, democratic.

## **FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI**

**Soipova Mavjuda Karimjanovna**  
Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Fazl ibn Ahmadning ilmiy ijodi va hayoti falsafiy tahlili haqida ma'lumotlar berilgan. Iddatul uqul va umdatul ma'qul (Aqlarning va'da berishi va aqllarga ma'qul narsalarning asosi) asarida nur va harakat falsafasi haqida fikrlar keltirilgan. Yangi O'zbekistonni barpo etishda Rumiy ta'limoti, ayniqsa, Fazl ibn Ahmad g'oyalari bilan bugungi murakkab zamonda yoshlarni ruhiy barkamol insonlar etib tarbiyalash, ma'naviy jihatdan yuksaltirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda Fazl ibn Ahmadning Iddatul uqul va umdatul ma'qul (Aqlarning va'da berishi va aqllarga ma'qul narsalarning asosi) risolasidan samarali foydalanish ijtimoiy taraqqiyotda, jamiyat farovonligida va inson ehtiyojlarini qondirilishida ustuvorligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** islam, ijtimoiy ilm taraqqiyot, inson, dialektik, sinergetik, deterministik, ma'naviy milliy va umuminsoniy manfaatlar, progressiv taraqqiyot, axloqiy qadriyatlar, estetik, siyosiy, huquqiy, demokratik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N31>

**Kirish.** Borliqning shakllari bo'lgan tabiat, inson, ma'naviy borliq nur orqali namoyon bo'ladi. Inson o'zini haqiqiy, asliy tomonini bilishda ba'zida xatolikka yo'l qo'yib ko'pgina to'siqlarga duch kelmoqda. Insonning yagona asosi uning aslidir, ya'ni ruhiy olamidir. Demak, haqiqiy nur bu aql yoki ruh bo'lib, olam va odam bilan aloqadorlikdadir.

Qadimgi Mesopotamiya, Hindiston hamda Yunoniston falsafiy tafakkurida ilohiy haqiqat, ilohiy nur haqidagi ta'limotlar vujudga kelgan. Gnostiklar ta'limotida xudo va materiya o'rtaqidagi tafovut tahlil qilingan. Buning natijasida gnostiklar emanatsiya (ya'ni, ilohiy nurlanish), demurg haqidagi ta'limotni kiritganlar[1]. Bu ta'limot bo'yicha, ilohiy nurlanish jarayonida ruhiylik kamayib, moddiylik ko'payib boradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Zardushtiylik ta'limotida koinot, yer, okean, osmon, nurli doira va jannatdan iborat. Yer dumaloq bo'lib, atrofi okean bilan o'ralgan va ob-havo, yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan yetti qismdan iboratki, bu bobilliklarning yetti shamollar haqidagi qadimgi tasavvurlaridan iqtibos qilingan. Osmon to'rt doiradan tashkil topgan: yulduzlar doirasi, oy doirasi, quyosh doirasi va jannat doirasi yoki nur makoni. Yulduzlar, Oy va Quyosh xudo Axura Mazdaning badani sifatida tasvirlanadi. Ular hurmatga sazovor edilar[2].

Nur tushunchasi Moniy ta'limotida ham muhim o'ringa ega bo'lgan. Moniy xristianlikni, zardushtiylik va boshqa sharq dinlarini o'ziga xos tarzda birlashtirishga harakat qilgan ta'limot hisoblanadi. Ushub ta'limotda "dastlabki odam shunday bir mohiyatdagi ilohiy nurlanish natijasida vujudga kelganki, bu mohiyat, o'z navbatida undan yuqoriyoq ilohiy nurlanish bosqichidan o'tgan. Jon nurining inson tanasining qulligidan qutulishi insonning qutqarilishidir"[3]. Moniy olamning borligi va ko'rinishlari haqida to'xtalib "nur olamlariga, qadimgi insonlar va "hayot ruhiga" (ishonishga) da'vat etadi. Nur va zulmat qadimdan bor va bu ikkisi azaliy"[4] — degan fikrni keltiradi.

Fazl ibn Ahmad risolalarini falsafiy tahlil qilganimizda nur masalasiga alohida e'tibor qaratib, ba'zi mutafakkirlarning qarashlari bilan bahsga kirganini ko'rishimiz mumkin.

ابو سهل مسیحی مردی بوده است که سخن او در حکمت معتبر دارند اما در باب معرفت نور او را عذری افتاده است، و آن آنست که میگوید که نور جوهر نیست و عرض نیست. و بر این برهان می انگیزد و می گوید: "اگر عرض بودی محل بودی که انتقال کردی، و نور آفتاب از قرص او به مرکز زمین انتقال میکند. و جسم نیست که اگر جسم بودی در هوا متلاشی نشده و به صدور او از جرم آفتاب به روزگار نقصان گرفتی و نفاذ شدی، چون آبی که از منبعی برون آید و گستته شود. و جوهر نیست که اگر جوهر بودی، جوهر باطل نگردد و منعدم نشود. و اگر جوهر بودی، آنکه به روزنی در خانه سوداگر روزن بگرفتندی آنچه در خانه بودی در آنجا بودی، در آنجا بماندی". [5]

*Mazmuni:* Ab-u Sahl Masihiy haqida shunday ta'rif berilgan: "Hikmatda so'zi e'tiborli bo'lgan shaxs, lekin nur haqidagi qarashlarida u xatoga yo'l qo'ygan. Uning xatosi shundaki, u nurga na javhar (substansiya) va na araz (aksidensiya) deb ta'kidlaydi". Bu fikrni u quyidagi dalillar bilan asoslaydi:

*Birinchidan*, nur araz emas, chunki agar u araz bo'lganida, uning bir joydan ikkinchisiga ko'chishi mumkin emas edi. Ammo quyosh nuri o'z markazidan yer yuzining markazigacha o'tadi.

*Ikkinchidan*, nur jism ham emas, chunki agar u jism bo'lganida, havoda parchalanib ketishi kerak edi va u quyoshdan chiqqan vaqtda, o'z manbaidan oqib tushayotgan suv kabi parchalanib yoki tarqalib ketgan bo'lardi.

*Uchinchidan*, nur javhar (jismning mohiyati) emas, chunki agar u javhar bo'lganida, bekor va yo'q bo'lib ketmasdi. Agar nur javhar bo'lganida edi, masalan, bir uydagi yorug'lik yoriqchadan (tirqishdan) tushganda, o'sha nur uyda qolib ketardi va o'sha yerda to'xtab, harakatlanmasdi.

Bu dalillar Masihiyning fikrini asoslashga qaratilgan, ammo uning fikrida kamchilik mavjudligi ta'kidlanadi.

Al-Masihiy 970–971-yillarda Xurosonning Jurjon (Gurgon) shahrida tug'ilgan, Bag'dodda ta'lim olgan. Xorazmshoh Ma'mun ibn Muhammad (995–997) ning taklifi bilan Bag'doddan Xorazmga keladi. Bu yerda u zamonasining buyuk olimlari bilan uchrashadi, ular bilan ilmiy tadqiqotlar o'tkazadi, tabobat bo'yicha tolibi ilmlarga dars beradi. Al-Masihiyning tibbiy mashg'ulotlarida Ibn Sino ham ishtirok etgan. Olim Sulton Mahmudning G'aznaga kelish

taklifini rad etib, 1010-yilda Ibn Sino bilan Xorazmdan Jurjonga ketayotgan vaqtida, yo'lda qirq yoshida vafot etadi. Al-Masihiy aniq fanlar, tabobat va falsafaga oid asarlar yozgan.

Ilk renesans allomalarining risolalarini chuqur o'rgangan Fazl ibn Ahmad olimning nur haqidagi fikrini tanqid qilib o'zining falsafiy tamoyilini ishlab chiqadi.

اتفاق است جماهير عقلا را که جمله عالم وما سوى الله تعالى يا اين است دليل او، در اعتراض بر وي گفته اند که جسم است يا جوهر يا عرض. و اين قسمی محصور است. پس چون نور ازین اقسام برون شود يافسمی رابع باشد و اين محل [6] است، و يا مدعوم مطلق باشد و نور معدوم نیست.

*Mazmuni:* "Olimlar jamoasi ittifoq qilganki, olamda Allohdan boshqa har bir narsa jism, javhar yoki araz hisoblanadi. Bu tasnif uchta toifaga taqsimlangan va boshqa bir toifa bo'lishi mumkin emas". Shunday qilib:

- agar nur bu toifalardan biriga kirmasa, demak, u to'rtinchi bir tur bo'lishi kerak. Lekin bu mantiqqa zid va mumkin emas.

- nur mutlaq yo'qlik bo'lishi kerak, lekin nur yo'qlik emas, chunki u mavjud va his qilinib turadi.

**Muhokama.** Shu sababli, olimlar fikricha, nur, albatta, jism, javhar yoki araz toifasidan biridir. Bu esa Masihiyning nurga oid "na javhar va na araz" degan qarashini rad etadi.

Aziziddin Nasafiy fikricha nur va javhar hammada mavjud bo'lishini ta'kidlaydi. "Ammo shuni ham bilki, xalqi olam umuman, hammasi ul javhardan xoli emaslar, hammada ham ul nur va ul javhardan bordir. Ammo ba'zida ilohiy nur va asliy javhar pardani yirtib, o'ziga yo'l ochgay, (kishi shunda) ul asl nurni borliq (vujud) pardasisiz ko'ra oladi va unga sajda qiladi. Kimda-kim, ul javhar va ul nur kuchsiz va kam bo'lsa, uning pardani yirtib yo'l ochishga quvvati yetmaydi. Shu uchun u pardaga mag'lub bo'ladi. Mag'lubni esa yo'qolgan deb hisoblaydilar" [7].

Demak, inson ko'rish, eshitish, bilishdan to'g'ri foydalansa zulmatdan nurni ajratib, nurni o'zi qanday bo'lsa shunday ko'radi. Nur hammada mavjud, ammo ayrimlarda uning kuchi kamroq hisoblanadi. Agar nur qancha kuchli bo'lsa, unda ilm va ma'rifat ko'proq bo'ladi.

Fazl ibn Ahmad nur to'g'risidagi ba'zi olimlarning fikrini quyidagicha tahlil qiladi.

پس محققان گفте اند در جواب این، که نور عرض است بحقیقت، و انتقال بر وي محل است اما وجود او به خلاف ثانی می باشد در حال مقالات جواهر و محاذات او، که هر گه گه جرمی که او را نوری باشد اما رائحتی؛ اما لونی؛ چون در محاذات جسمیدیگر افتاد این جسم آن عرض را قابل شود بر سبیل حدوث بواسطه هوا، که جرمی شفاف است و قبل کیفیات [8] است به سرعت و ظهور. و حدوث این عرض درین جسم ثانی از واهب صور باشد یعنی قابل فعل بواسطه این جرم شفاف.

*Mazmuni:* "nur aslida arazdir (moddaga yopishuvchi sifat) va uning ko'chishi imkonsiz, lekin uning mavjudligi javharlar bilan munosabatga kirishganda boshqacha tarzda namoyon bo'ladi".

*Birinchidan*, har qachon biror jismdan nur chiqsa yoki uning biron-bir sifati bo'lsa — bu o'tkir bo'lishi mumkin, yoki biron-bir rangda namoyon bo'lishi mumkin. Shu vaqtida bu jism boshqa bir jism bilan muqobil kelsa, ikkinchisi bu nurni hosil qiladi, lekin buning o'zi havo orqali amalga oshadi.

*Ikkinchidan*, havo — shaffof jism bo'lib, u sifatlarni tez va oson qabul qiladi hamda namoyon qiladi.

*Uchinchidan*, buning natijasida, ikkinchi jismda bu araz (sifat) paydo bo'lishi "Vohib as-suvar" (ya'ni, Allah) tomonidan berilgan sifat bilan hosil bo'ladi. Bu holda nur bu jarayonda faol va qabul qiluvchi jismlar o'rtasidagi shaffof muhit orqali tarqaladi.

Bu javob Masihiyning "nur araz emas" degan fikriga raddiya bo'lib, nuring araz ekanligi va uning paydo bo'lishi jarayoni tushuntiriladi.

Empedoklning fikricha, “dastlab qorishib ketgan unsurlardan birinchi bo’lib havo ajralib chiqib, atrofga yoyilgan. Keyin ulardan olov ajralib chiqqan. Borliqning eng yuqori qismini havo egallagani uchun olov gumbazsimon holatni tashkil etgan”[9]. Mutafakkirning astronomik gipotezasiga ko’ra, Quyosh tabiatan olovli emas, balki gumbazsimon osmon ostidagi kunduzgi yoritqich bo’lib, quyoshning suvda aks etgani kabi u olovning aksidir. Oy esa havodan tashkil topgan. Havo yuqorida quyuqlashib, do’lga o’xshash shaklga kirgan. Oy o’zidan nur taratmay, balki quyosh yog’dusini aks ettiradi.

Fazl ibn Ahmad ta’kidlashicha,

مثال آн چон نур آفتаб ке چон قرصае آفتаб مقابил زмийин шуд ҳем дар حال جملе اجسام عالم کونى از نور او روشن شوند بواسطه هوا كه جرمى شفاف است. و اين نور از واهب صور بر اين اجسام پديد مى آيد به شرط محاذات قرص آفتاب، بى [10] زمان و بى انتشار و بى انتقال ؛ چه اين جمله بر عرض محل است.

Buning misoli: quyosh nuridir. Quyosh diskি yerga qarshi bo’lganda, darhol butun koinotdagi jismlar uning nuri bilan yoritiladi. Bu yoritilish havo orqali sodir bo’ladi, chunki havo shaffof jismdir. Bu yerda asosiy nuqta quyidagicha izohlanadi:

*Birinchidan*, nurning paydo bo’lishi — bu jismlardagi nur “Vohib as-suvar” (ya’ni, Alloh) tomonidan paydo qilinadi.

*Ikkinchidan*, bu jarayon quyosh doirasining muqobil turishi (ya’ni barobar turishi) orqali amalga oshadi. Bu holda nur, zamonsiz (vaqtsiz) paydo bo’ladi, yoyilishsiz, ya’ni ma’lum bir masofaga tarqalmaydi, o’tkazilishsiz (o’tishsiz) amalga oshadi. Chunki bu xususiyatlar araz uchun imkonsizdir. Shu sababli, nurning jismdan jismga o’tishi emas, balki havo orqali jismlarda paydo bo’lishi arazning tabiatiga xos jarayon sifatida tushuntiriladi.

XX asr G’arb faylasuflari, fizik hamda kosmolog olimlari borliqdagi nurning tarqalishi masalasiga alohida e’tibor berishgan. Mashhur rus faylasuf-monaxi va yepiskopi Vasiliy Rodzyanko (1915-2001) ilm-fan va din o’rtasida ko’z ilg’amas rishtalar mavjud ekanligini ochib berib, uning ta’kidlashicha, to’g’nog’ich uchiday keladigan kichkinagina quyuq va o’ta zinch bo’lgan nur — javharning portlatilishidan butun Borlik — Koinot paydo bo’lgan[11]<sup>1</sup>.

Fazl ibn Ahmad Masihiyning nurga oid fikrlariga qarshi bo’lsa-da, lekin uning ta’limotini hurmat qilgan.

فصل ابو سهل مسيحي مردكى بوده است کي سخن او را حکمت معتبر دارند اما در باب معرفت نور او راعתרت افتاده ست و ان آنست کي می کوید کي نوایي جوهر نیست و عزین نست و بريں برهان می انکيرد وی کوش اکرعرض بودی محل بودی کي انتقال کردى و نور افتتاب از قرص او نهركن زمین انتقال می کند و جسم نست کي ان جسم اوذی درهوا ان امتلای نشدي و بعد در ادان حبررا افتتاب بروزکار نقصان کرفتی و نفاد شدی جون ابی کي از منبعی برون آبی و گسته جوهر نیست کي اکرجوهر بودی جوهر باطل نکردد و منعدم نشود و اگر جوهر بودی انک بروني درخانه شود اگر روزی دیگر فتند ی انجا بودی خانه بود که در انجا مانندکی نیست دليل او در اعتراض بر وی گفته اند که اتفاقست جماهیر عقلارا کی جمله عالم و ما سوی الله تعالى یا جسم است یا جوهر یا عرض و این قسمی محمود است بس جون نور ازین اقسام برون شود یا قسمی رابع باشد و ان محل است و یا معدوم مطلق باشد و نور معدوم نیست و محققان گفته اند در جواب اینک نور عرض است بحقیقت و انتقالی محالست [12]

*Mazmuni*: Ab-u Suhayl Masihiyning so’zlari va hikmatlarini qadrlaymiz. Biroq, ma’rifat nuri borasida u adashgan. Ya’ni, “Nur javhar emas, balki arazdir”. Alloma buning uchun quyidagi dalillarni keltiradi: agar nur araz bo’lmasa, uning harakat qilishi mumkin emas edi. Masalan, quyosh nuri quyosh doirasidan yerga o’tib turadi. Uning ta’kidicha, nur moddiy jism emas, chunki agar moddiy jism bo’lganida, u havoda barqaror turib, havoni to’ldirgan bo’lar edi. Agar nur javhar bo’lsa, uning manbai qurishi kerak edi, biroq nur o’z manbaidan oqib chiqadigan suv

<sup>1</sup> Кедров Константин. Параллельные миры. — Москва: “А и Ф Принт”, 2001. — С. 42.

kabi yo'q bo'lib ketmaydi. Agar nur javhar bo'lsa, uning yo'qolishi mumkin emas edi, chunki javhar yo'q bo'lmaydi. Agar nur javhar bo'lsa, u xonaga kirganida u yerda qolardi va boshqa kuni ham o'sha joyda bo'lishi kerak edi, lekin unday emas. Yana shunday dalil keltirilgan: butun oqillar ittifoq qilganlarki, Alloh taologa nisbatan boshqa barcha olam yo jism yo javhar yoki arazdir. Agar nur ushbu uch toifadan biri bo'lmasa demak, u to'rtinchı turdagı narsa bo'lib qoladi, bu esa mumkin emas. Shuningdek, nur mutlaqo yo'q narsa ham emas, chunki nur mavjud. Haqiqatni izlagan olimlar shunday javob bergenlar: "Nur aslida arazdir va uning mustaqil harakat qilishi mumkin emas".

**Xylosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak har bir obyekt o'zini qurshagan muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishadi, bu o'zaro ta'sir esa muayyan turdagı harakatni o'z ichiga oladi. Yerga nisbatan harakatsiz holatdagi har qanday jism u bilan birga Quyosh atrofida, Quyosh bilan birga Galaktikaning boshqa yulduzlariga nisbatan harakatlanadi. Galaktika ham boshqa yulduzlar sistemalariga nisbatan harakatda bo'ladi, o'zgaradi. Ma'lumki, ayrim o'simliklarning barglari doimo yorug'lik manbai tomonga – nurlar ularga 90 gradusga intiluvchi burchak ostida tushadigan tarzda qarab o'sadi. Mutafakkir ta'limotiga ko'ra, har bir jism cheklangan bo'lishi lozim, chunki uni taxminan kesganda, uning sirti (yuzasi) paydo bo'ladi. Shu sirt ushbu jismning atrofini o'rab turadi, va bu sirtni "makon" deb ataydilar. Shu sababli faylasuf makonni aniqlab, quyidagicha ta'rif bergen:

“المكان هو السطح الاسفل من الجسم الحاوي المماس السطح الاعلى للجسم المحوى” [13]

Ya'ni, makon quyidagi jismning yuqoridağı jismning sirti bilan tutashishayotgan sirtidir.

Fazl ibn Ahmad fikricha, makon haqiqiy makon bo'lishi uchun unga to'rtta xususiyat zarur:

*Birinchidan*, ikki jism hech qachon bir makonda bir vaqtning o'zida joylasha olmaydi.

*Ikkinchidan*, uning yuqori va past qismi bo'ladi.

*Uchinchidan*, jism ko'chish bilan birga ko'chmaydi.

*To'rtinchidan*, jismni qamrab oladi va jism unda haqiqiy ma'noda o'ziga xos joyni egallaydi.

Bu aytilgan to'rt xususiyat biz "had" deb atagan bu makonda ravshan va mavjuddir.

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
2. Komilov N. Tasavvuf. II kitob. Tavhid asrори. – Toshkent.: O'zbekiston – G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1999.
3. Xolmo'minov J. Tasavvuf ontologiyasi. – Toshkent: Yosh avlod matbaa.
4. Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi.- Toshkent.: Sharq. 2003.
5. Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy. Tasavvuf va inson. - Toshkent.: Adolat. 2001.
6. Nazarov Q. Borliq falsafasi.- Toshkent. 2007.
7. Zoirov E. Xojagiy Ahmad Kosoni. Risola - ye vujudiya. Qo'lyozma. Muallifning shaxsiy kutubxonasidan.
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent.: O'zbekiston. 2017.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 3 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).